Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida resurs tejamkorligiga erishish, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va mavjud resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib yuqori iste'mol darajasini



ta'minlash eng muhim muammo bo'lib kelgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda resurs samaradorligi va intensivligi indeksi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 47 koeffitsiyentni, eng yuqori darajadagi mamlakatlarda esa 64 koeffitsiyentni tashkil etadi. Bu esa hatto eng ilg'or sanoat tizimlariga ega davlatlar ham to'liq "aylanma iqtisodiyot"ga erishishdan uzoq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, so'nggi 50 yil davomida moddiy resurslardan foydalanish hajmi uch barobarga ortgan bo'lib, 2020-yilda umumiy materiallar sarfi 106,6 milliard tonnani tashkil etgan. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2060-yilga borib global tabiiy resurslar iste'moli 60 foizga oshadi [2].

Mazkur jarayonlar sanoat korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha yangi tahliliy yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish samaradorligini baholashda yagona mezon yoki bitta ko'rsatkichdan foydalanish ko'pincha to'liq natija bermaydi. Shu sababli, ko'p mezonli tahlil (multikriterial baholash) usullari asosida iqtisodiy, moliyaviy, texnik va tashkiliy omillarni birgalikda o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda.

Ko'p mezonli tahlil usullari yordamida korxonalar faoliyatini baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki ishlab chiqarish jarayonining sifati, texnologik yangilanish darajasi, energiya va resurs tejamkorligi, inson kapitalidan foydalanish samaradorligi kabi kompleks omillar ham inobatga olinadi. Natijada, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosli yondashuv shakllanadi va bu korxona raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi[3].

Shu boisdan, sanoat korxonalarining samaradorligini baholashda ko'p mezonli tahlil usullarini qo'llash masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy nazariya, balki amaliy boshqaruv uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu yondashuvning nazariy asoslari, amaliy qo'llanish imkoniyatlari va integrallashgan samaradorlik ko'rsatkichini shakllantirish mexanizmlari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining samaradorligini baholash va resurslardan oqilona foydalanish masalalari hozirgi davrda nafaqat iqtisodiyot, balki barqaror rivojlanish siyosatining ham markazida turibdi. Jahon ilmiy hamjamiyati ushbu yo'nalishda ishlab chiqarish samaradorligini ko'p mezonli baholash modellarini yaratish, resurs tejamkorligi va raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Masalan, S. Kramer va S. Engell (2015) o'z tadqiqotlarida sanoat tizimlarida energiya samaradorligini oshirishning matematik modellarini ishlab chiqib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda ko'p mezonli qaror qabul qilish usullarini (Multi-Criteria Decision Making – MCDM) qo'llash samaradorligini asoslab berishgan. Ularning fikricha, sanoat korxonasida energiya sarfi, ishlab chiqarish hajmi, chiqindilar miqdori va mahsulot tannarxi kabi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq bo'lgani sababli ularni integrallashgan baholash zarur[4].

M. Chen va X. Xu (2020) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlarda sanoat korxonalarining samaradorligini baholashda Data Envelopment Analysis (DEA) va Analytic Hierarchy Process (AHP) modellarini integratsiyalash orqali ko'p mezonli tahlil usullarini amaliyotga tatbiq etish natijasida ishlab chiqarishning iqtisodiy, texnik va ekologik ko'rsatkichlarini kompleks baholash usullari asoslangan. Ular "ko'p mezonli baholash" yondashuvi orqali korxonaning umumiy samaradorlik indeksini aniqlash imkoniyati mavjudligini ta'kidlaganlar[5].

Shuningdek, S. Bag, S. Rajput va S.P. Singh (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat tizimlarida raqamli texnologiyalar (Industry 4.0) asosida resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Olimlar raqamli platformalar yordamida ishlab chiqarish resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish orqali energiya va materiallar tejashini 20–25% gacha oshirish mumkinligini isbotlashgan[6].

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari ham sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim tadqiqotlar olib borganlar. Yu.M. Belyavsev, A. Fayustov, Yu.N. Kulakova va A.A. Xolodov (2016–2020-yillar) ishlarida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini resurs tejamkor boshqaruv asosida tashkil etish muammolari tahlil qilingan [7].

E.S. Sxovrebov va N.A. Mamadaliyeva o'z tadqiqotlarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashda ko'p mezonli tahlilning chiziqli va noaniqlik sharoitidagi modellarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, samaradorlikni baholashda korxona hajmi, ishlab chiqarish quvvati, resurslardan foydalanish darajasi va inson omili o'rtasidagi o'zaro ta'sirni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

O.V. Antipova, S.S. Komarov, A.S. Shaxverdov va V.Yu. Anisimova sanoat korxonalarining iqtisodiy tahlilini takomillashtirish bo'yicha ishlanmalarida kompleks baholash tizimlarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, ko'p mezonli yondashuv samaradorlikni an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish darajasi va ekologik samaradorlik bilan baholash imkonini beradi [9].

O'zbekiston iqtisodchi olimlari ham sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishida qator ilmiy ishlanmalar yaratganlar. A.U. Burxanov (2020) sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilib, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish muhimligini asoslagan [10].



X.A. Kurbonov va N.M. Maxmudov (2021) o'z ishlarida sanoat korxonalarining investitsion va ishlab chiqarish salohiyatini ko'p mezonli baholash asosida tahlil qilish metodologiyasini taklif etganlar. Ular ko'p mezonli tahlil yordamida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash va korxona faoliyatining integrallashgan samaradorlik ko'rsatkichini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib berganlar [11].

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari, xususan R. Ergashev, Z. Mirzayev, Sh. Yodgorova, Z.A. Xakimov, M.K. Abdullayeva, F.R. Xolbekova va Sh.D. Doniyorova tomonidan sanoat tarmoqlarining qiymat zanjirini yaratish, resurs xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish masalalari keng o'rganilgan [12].

O'rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida samaradorlikni baholashda ko'p mezonli tahlil yondashuvlari dunyo tajribasida keng qo'llanilmoqda. Biroq, O'zbekiston sharoitida bu usullarni milliy iqtisodiy modelga moslashtirish, ko'p mezonli integrallashgan samaradorlik ko'rsatkichini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish borasida yetarli ilmiy ishlanmalar mavjud emas. Shu sababli, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi va mamlakat sanoat siyosatining innovatsion rivojlanish bosqichida muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda sanoatni modernizatsiyalash, texnologik yangilanishlarni joriy etish va ishlab chiqarish tizimlarini diversifikatsiyalash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishiga hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va klaster tamoyillari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda eksport salohiyatini oshirish mamlakatning sanoat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish belgilangan. Ushbu farmonga muvofiq, 2026-yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa sanoat sohasida texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.[13]

1-jadval. 2019-2025 yillarda hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	322535,8	368740,2	456056,1	553265	658991,7	880198,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12736,1	13981,3	16630,4	17624,7	17791,1	24323,5
Andijon viloyati	33122,3	36376,5	35935,3	54352,5	73767,1	90626,6
Buxoro viloyati	14798,2	17574,4	20772,1	27202,4	31860,4	42243,7
Jizzax viloyati	4586,1	5823,8	8731,8	11402	19197,3	24903,7
Qashqadaryo viloyati	20360,1	14612,3	18771,9	22624,4	28767,7	39116,8
Navoiy viloyati	44438,1	65084,9	73633,5	84393,7	101841,9	145615
Namangan viloyati	8818,1	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8	31696,2
Samarqand viloyati	15783,6	18383,4	22834,3	29188,6	32955,7	45408
Surxondaryo viloyati	4231,3	5322,7	6675,3	7229,8	8848,6	13819,8
Sirdaryo viloyati	7293	7990,9	9813,3	12011,2	15348,1	20064,5
Toshkent viloyati	53484,8	65949,9	83433,9	93935,1	106915,3	138555,4
Farg'ona viloyati	18661,2	21701,2	27761,5	30303,5	35794,9	45896,1
Xorazm viloyati	8538,6	9615,9	13658,1	18323,3	21589,1	28438,8
Toshkent shahri	52747,5	66188	90211,9	108807,7	124116,4	171706,2

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining 2019–2025-yillar davridagi rivojlanish dinamikasi ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davr mobaynida mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. Agar 2019-yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 322 535,8



mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 880 198,5 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 2019-yilga nisbatan qariyb 2,7 baravar o'sishni anglatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri, Navoiy viloyati va Toshkent viloyati mamlakat sanoat ishlab chiqarishining asosiy drayverlari sifatida ajralib turadi. Jumladan, Toshkent shahrida ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 52 747,5 mlrd so'mdan 2025-yilda 171 706,2 mlrd so'mgacha o'sib, 3,25 baravar ko'paygan. Navoiy viloyatida bu davrda ishlab chiqarish hajmi 44 438,1 mlrd so'mdan 145 615 mlrd so'mgacha oshib, 3,27 baravar o'sish qayd etilgan. Toshkent viloyatida esa 2019-yilda 53 484,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 138 555,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Andijon, Buxoro, Farg'ona va Samarqand viloyatlari ham sezilarli sanoat o'sishini namoyish etgan. Masalan, Andijon viloyatida ishlab chiqarish hajmi 2019-yildan 2025-yilgacha 2,7 baravar, Buxoro viloyatida 2,85 baravar, Farg'ona viloyatida esa 2,45 baravar oshgan. Bunda viloyatlarda avtomobilsozlik, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatiga kiritilgan investitsiyalar muhim rol o'ynagan.

Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida ham o'sish dinamikasi ijobiy bo'lib, ayniqsa Jizzax viloyatida ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 4 586,1 mlrd so'mdan 2025-yilda 24 903,7 mlrd so'mgacha oshib, 5,4 baravarga o'sdi. Bu ko'rsatkich respublika bo'yicha eng yuqori nisbiy o'sishlardan biridir. Bu holat hududda yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi va xorijiy investitsiyalar oqimi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilib, 2019–2025-yillar oralig'ida ishlab chiqarish hajmi 1,9 baravar oshgan. Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu ko'rsatkich mos ravishda 1,9–2,5 baravar atrofida bo'lib, sanoat rivojlanishida ijobiy sur'atlar kuzatilmoqda [14].

Umuman olganda, 2019–2025-yillarda mamlakat sanoat ishlab chiqarishi hajmining o'sishiga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatgan:

- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlarining faollashuvi;
- xususiy sektor ishtirokining kengayishi hamda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi;
- hududiy sanoat zonalar va klaster tizimining shakllanishi;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash.

Ammo tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda sanoatning umumiy hajmi pastligicha qolmoqda. Masalan, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2025-yilga kelib mos ravishda 13 819,8 mlrd so'm va 20 064,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu respublika bo'yicha eng past natijalar sirasiga kiradi. Buning sababi sifatida hududlarda xomashyo bazasining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, transport-logistika infratuzilmasining cheklanganligi hamda investitsion muhitning nisbatan sustligi ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019–2025-yillar davomida O'zbekiston sanoati izchil o'sib borgan, ammo hududlar o'rtasidagi farq hanuz sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Shu bois, kelgusida sanoat siyosatida hududiy muvozanatni ta'minlash, kichik va o'rta sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ko'p mezonli tahlil usullarini amaliyotga keng tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, moddiy resurslardan tejimli foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hozirgi kunda sanoat korxonalarini samarali boshqarishning eng muhim omili bo'lib qolmoqda. Afsuski, amaliyotda amalga oshirilayotgan islohotlar va texnologik yangilanishlar moddiy resurs sarflarini keskin kamaytirishga yetarli ta'sir ko'rsatayotgani yo'q.


Sanoat korxonalarining samaradorligi — bu faqat ishlab chiqarish hajmlarini oshirish emas, balki mavjud resurslar ustidan nazoratni ta'minlash, mehnat, moliya va moddiy resurslarning optimal taqsimlanishini tashkil etish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, resurs salohiyatini korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida ko'rish mumkin. U ishlab chiqarish jarayonini zarur resurslar bilan ta'minlashning kompleks qobiliyatini aks ettiradi.

Sanoat korxonalarining rivojlanish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish esa biznesdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan ko'rsatkichlarni, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini baholash orqali strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli, sanoat korxonalarining samaradorligini baholashda ko'p mezonli tahlil usullarini qo'llash — iqtisodiy, moliyaviy va texnologik omillarni kompleks baholashga imkon beradi. Bu yondashuv korxonalar faoliyatini yanada chuqur tahlil qilish, resurslardan tejankor foydalanishni ta'minlash hamda sanoatni barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslarini mustahkamlash uchun zarur ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda sanoat ishlab chiqarish hajmlari yildan-yilga ortib bormoqda, biroq bu o'sish jarayonida resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining maqbullashtirilishi masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2022-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 4 barobar oshgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish xarajatlari, xususan moddiy resurslarga to'g'ri keladigan xarajatlarning ulushi deyarli o'zgarmagan — 76–81 foiz atrofida saqlanib qolgan. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligining yetarli darajada oshmayotganligini ko'rsatadi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini indeksli baholash

Sanoat korxonalarining faoliyati samaradorligini baholash uchun ko'p mezonli tahlil (multicriteria analysis – MCA) yondashuvini qo'llash korxonaning iqtisodiy, texnik va ekologik ko'rsatkichlarini kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu tahlil doirasida quyidagi asosiy mezonlar aniqlangan:

Energiya samaradorligi ko'rsatkichi (E_1) – ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi.

Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti (E_2) – ishlab chiqarishda xomashyo va materiallardan foydalanish samaradorligi.

Mehnat unumdorligi (E_3) – bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Moliyaviy rentabellik (E_4) – sof foydaning ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati.

Ekologik barqarorlik indeksi (E_5) – chiqindilar hajmi va ularni qayta ishlash darajasi o'rtasidagi nisbat.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida 10 ta yirik sanoat korxonasining faoliyati baholandi. Har bir ko'rsatkich 0 dan 1 gacha normalizatsiya qilinib, vaznli o'rtacha ko'rsatkich yordamida umumiy samaradorlik indeksi (SI) hisoblandi. Natijalar quyidagi tendensiyalarni ko'rsatdi:

Energiya va moddiy resurslardan samarali foydalangan korxonalar umumiy samaradorlik indeksida yuqori natijalarga ega bo'lgan.

Eng past samaradorlik ko'rsatkichlari energiya sarfi yuqori va chiqindilarni qayta ishlash darajasi past korxonalarda qayd etilgan.

Ko'p hollarda resurs tejamkorlik bilan moliyaviy rentabellik o'rtasida bevosita ijobiy korrelyatsiya aniqlangan ($r \approx 0,74$).

Tahlil natijalariga ko'ra, resurs tejamkorligini oshirish bo'yicha texnologik va boshqaruviy yechimlarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish rentabelligi o'rtacha 8–12 foizga oshgan. Bu esa ko'p mezonli yondashuv asosida resurs samaradorligini oshirish bo'yicha qarorlar ishlab chiqishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Data Envelopment Analysis (DEA) modeli yordamida korxonalar samaradorligi baholandi. Ushbu modelda kirish omillari sifatida energiya sarfi, xomashyo hajmi va ishchi soatlari; chiqish omillari sifatida esa mahsulot hajmi va sof foyda olingan. Natijalarga ko'ra, tahlil qilingan korxonalarning 30 foizi nisbatan samarali zonada, 70 foizi esa samarasiz zonada joylashgan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan ularning resurslardan oqilona foydalanish strategiyasiga, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish darajasiga hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish (Industry 4.0) imkoniyatlaridan foydalanishga bog'liqdir.



Ko'p mezonli tahlil asosida aniqlangan integrallashgan samaradorlik indeksi (SI) sanoat korxonalari faoliyatini baholashda obyektiv, tizimli va kompleks yondashuvni ta'minlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini optimallashtiradi. Ushbu yondashuv natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Korxona samaradorligini oshirish uchun resurslardan foydalanishning iqtisodiy va texnologik ko'rsatkichlarini integratsiyalash zarur.

Energiya va moddiy resurslar tejamlorligi ko'rsatkichlarini asosiy baholash mezonlari sifatida e'tiborga olish samarali natija beradi.

Ko'p mezonli tahlil usullari (MCA, DEA) sanoat korxonalarida strategik rejalashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun samarali boshqaruv vositasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sanoat korxonalari faoliyatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan resurslardan foydalanish darajasiga bog'liq. Moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda foyda miqdorini oshirish imkonini beradi. Indeksli tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlariga erishilgan bo'lsa-da, resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha salbiy tafovutlar mavjud. Bu esa korxonalar faoliyatida resurs salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

Resurs salohiyatining jamlanma integral ko'rsatkichi tahlili asosida shuni aytish mumkinki, korxona ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, energiya va xomashyo sarfini kamaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin.

Energiya tejamlor texnologiyalarni joriy etish — ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfini kamaytiruvchi innovatsion uskunalaridan foydalanish orqali resurs samaradorligini oshirish.

Resurslardan foydalanish monitoring tizimini yaratish — moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bo'yicha muntazam monitoring yuritish korxonaga real vaqtda nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish — avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yordamida resurs sarfini optimallashtirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish — mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta o'qitish dasturlarini kengaytirish.

Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash — korxona investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ichki mablag'larni qayta taqsimlash orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Hududiy tahlil natijalariga asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish — har bir viloyatning ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, resurslardan foydalanish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. Giyosov, Ilhomjon Karimovich, and Inomjon Ortikbayevich Karimov. «TARGETED AND EFFECTIVE USE OF INVESTMENT IN CONSTRUCTION INDUSTRY»
3. Karimov I. O. Qurilish tashkilotlarida investitsiya loyihalar samaradorligini baholash usullari // "UCHINCHI RENESSANS: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari" mavzusidagi № 1-sonli ko'p tarmoqli, ilmiy onlayn konferensiya (2-qism).
4. Krämer S., Engell S. Energy and Resource Efficiency in the Process Industries // Resource Efficiency of Processing Plants: Monitoring and Improvement. – 2018. – C. 3-18.;
5. Chen M. et al. Impact of technological innovation on energy efficiency in industry 4.0 era: Moderation of shadow economy in sustainable development // Technological Forecasting and Social Change. – 2021. – T. 164. – C. 120-521.;
6. Xu X. et al. Industry 4.0 and Industry 5.0 – Inception, conception and perception // Journal of manufacturing systems. – 2021. – T. 61. – C. 530-535.;
7. Bag S. et al. Key resources for industry 4.0 adoption and its effect on sustainable production and circular economy: An empirical study // Journal of Cleaner Production. – 2021. – T. 281. – C. 125-233.;
8. Rajput S., Singh S.P. Industry 4.0 – challenges to implement circular economy // Benchmarking: An International Journal. – 2021. – T. 28. – №. 5. – C. 1717-1739.;
9. Белявцев Ю. М. Антикризисная политика управления ресурсосбережением на основе концепции маркетинга. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (по отраслям сферы деятельности, в т.ч.: маркетинг) Донецк – 2020.;
10. Burxanov A.U., Kurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'llari (Qashqadare viloyati misolida) // – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.;
11. Maxmudov N. M., Xomidov S. O., Avazov N. R. Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish // Monografiya – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. – 2020. – T. 228.;
12. Yodgorova Sh. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'nalishlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 119-130.;
13. Yakimov Z. A. Transformatsiya klasterov "Industriya 4.0" // Innovatsii i investitsii. – 2022. – №. 3. – S. 207-213.;



11. Maxsudov, B. Yu., & Abduvaliev, Z. (2022). INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOT: GENEZISI VA ISTIQBOLDA RIVOJLANISHI. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 2(1).
12. Abduvaliev, Z., and Z. T. Eshbekova. "INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOT KORPORATIV BOSHQARUV VOSITASIDIR." Arxiv nauchnykh issledovaniy 1.1 (2021).
13. Mahmudovich A. Z. Corporate social responsibility is an important factor in the sustainable development of modern companies //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – С. 42-53.
14. Махсудов Б., Абдувалиев З. Роль заинтересованных сторон (стейкхолдеров) в корпоративной социальной ответственности //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 3. – С. 49-57.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
